UO‘K 811.512.133; 31.373

HAYVONLARNING YURISH HARAKATINI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

D.R. Turg‘unova

Maqolada hayvonlarning yurish harakatini ifodalovchi leksemalar o‘rganilgan. Leksik-semantik guruhlarga bo‘linib, tarixiy shakllari va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Badiiy va so‘zlashuv uslublarida bu kabi leksemalarning qo‘llanilishiga oid farqlar aniqlangan. Shuningdek, zoonimlarning xatti-harakatini ifodalovchi so‘zlar olamning lisoniy manzarasida muhim ahamiyatga ega ekanligi misollar asosida dalillangan.

Kalit so‘zlar: *yurish harakati, leksik-semantik maydon, leksik-semantik guruh, oyoq vositasidagi harakat, tuyoq vositasidagi harakat, konnotativ ma’no.*

В статье речь идет о существующих в употреблении узбекского языка лексемах зоонимов, которые обозначают движение букв. Лексемы, репрезентирующие поведение животных, разделены на лексико-семантические группы, проанализированы исторические формы и лингвокультурные особенности. На примерах доказано, что слова, выражающие поведение зоонимов, имеют важное значение в языковой картине вселенной.

Ключевые слова: *шагающее движение, лексико-семантическое поле, лексико-семантическая группа, движение ног, движение копыт, коннотативное значение.*

Kirish

Bugungi kunda ko‘plab tilshunoslar tomonidan zoonimlar yirik tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmoqda [1]. Zoonimlarning leksik-semantik jihatlari, ularning konseptologik xususiyatlari aniqlanmoqda [2]. Biroq tadqiqotlar hayvon nomlari haqida bo‘lib, hayvonlarning harakatini ifodalovchi leksemalar, ularning leksik-semantik xususiyatlari, uslubiy qo‘llanishi, shuningdek, lingvomadaniy va etnolingvistik jihatlari tilshunoslar e’tiboridan chetda qolmoqda. Olamning lisoniy manzarasida nafaqat zoonimlar, balki ularning xatti-harakatini ifodalovchi so‘zlar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir tilning faunasi bilan bog‘liq hayvonlar mavjud. Shunday ekan, ularning harakatini ifodalovchi leksik birliklarning ham turlicha bo‘lishi tabiiy. Hayvonlarning harakatini ifodalovchi bunday leksemalar hayvon nomlari bilan valentlik hosil qilish bilan birga, muayyan kontekstda turli ma’nolarni ifodalash xususiyatiga ham ega. O‘zbek tilida hayvonlar xatti-harakatini ifodalovchi leksemalar til leksik zaxirasining katta qismini tashkil qilib, salmoqli o‘rin tutadi.

Material va metodlar

O‘zbek tilshunosligida I.Qo‘chqortoyev [3], M.Sodiqova [4], N.Mahmudov [5], A.Nurmonov [6], R.Rasulov [7], A.Sobirov [8], M.Saidxonov [9] va boshqa bir qator olimlar tadqiqotlarida harakat va holat fe’llari bir necha mazmuniy guruhlarga bo‘lingan.

Harakat va holat fe’llari mazmuniy guruhiga kiruvchi yurish harakatini ifodalaydigan fe’llarni mavzumiz doirasidan kelib chiqqan holda insonga xos yurish harakati; hayvonga xos yurish harakatini ifodalovchi fe’llar kabi mazmuniy guruhlarga bo‘lish mumkin. Biz ushbu tadqiqotda faqat hayvonlarning yurishi bilan bog‘liq harakatlarni ifodalovchi leksemalar haqida to‘xtalamiz.

“Yurish harakati” lingvistik tushuncha bo‘lib, u subyektning muayyan makonda oyoqlari yoki transport vositasi yordamida amalga oshiriladigan harakatini ifodalash uchun qo‘llanadi. Yurish harakati fe’llari ham fe’l leksemasi tizimida o‘ziga xos semantik maydonni tashkil etib, barcha yurish harakati fe’llari mazkur leksik-semantik maydon doirasida birlashadi [10]. Biz dastlab o‘zbek tilidagi hayvonlar yurish harakati va holatini ifodalovchi so‘zlarni shu asosdan kelib chiqib, leksik-semantik guruhlarga bo‘ldik. Quyida ularni tarixiy-qiyosiy va tavsifiy metodlarga asoslanib tahlil qilamiz.

Natijalar va ularning tahlillari

Tadqiqotimiz obyektini o‘zbek tilida hayvonlarning oyoq harakatini, yurish tarzini ifodalovchi *sakillamoq, izg‘imoq, sörgilädi, yugurtmoq, japïshdi, teztak qil; ang‘ishlamoq, gijinglamoq, yelmoq, dingillamoq, dupurlamoq, yo‘rg‘alamoq, yo‘rtmoq, lapanglamoq, sakramoq, sekinlamoq, tepmoq, tepkilamoq, depsinmoq, to‘pillamoq, chig‘anmoq (dial.), chopmoq, o‘ynoqlamoq, o‘qaloqlamoq, tepinmoq, takovar sur, irg‘almoq* kabi so‘zlar tashkil qiladi.

Yuqoridagi so‘zlar oyoq bilan bog‘liq harakatlarni ifodalash bilan birga, har biri xususiy ma’no farqiga, qo‘llanilish o‘rni va jarayoniga, subyektiv baho munosabatiga ham ega. Masalan: *sakillamoq* so‘zi “behuda chopib, sakrab yurmoq” [11. B. 425] ma’nosini ifoda etib, nutqimizda itning yurishiga nisbatan qo‘llanadi. Bu leksemaning etimologiyasi fors-tojik tiliga borib taqaladi. “Sak” so‘zi fors-tojik tilida it hayvonini ifodalaydi [11. B. 245]. O‘zbek tilida bu so‘zga *-illa* so‘z yasovchi affiksi qo‘shilib, *sakillamoq* fe’li hosil qilingan. *Sakillamoq* leksemasi hayvon xatti-harakatini ifodalovchi so‘zdir. E’tiborlisi shundaki, tahlilga olingan leksema so‘zlashuv uslubida inson yurish holatini ifodalashda ham qo‘llanadi. Bunday o‘rinlarda salbiy uslubiy munosabatni ifodalaydi: *Va-a, qolib ketding, endi Halil akaning itidek sakillab piyoda kelasan! – dedi u Soat yuvoshga* (E.Rayimov).

Sakillamoq leksemasi inson xususiyatiga ko‘chirilganda, shaxsning muhim ish bilan band emasligini, bekorchiligini, maqsadsiz yurganini ifodalaydi: Kechasi-yu kunduzi kalta ishton kiyib, <u>sakillab</u> *ko‘chada chopgani chopgan* (Iqbol Mirzo, “Zarb”). *Shuningdek, bu leksema ishtirok etgan nutqiy vaziyatda retsipientning produtsentga nisbatan quyidagi munosabatlari ifodalanadi:*

Va-a, qolib ketding, endi Halil akaning itidek <u>sakillab</u> *piyoda kelasan! – dedi u Soat yuvoshga (kamsitish).*

Shaharning qoq markazi, hamma sharoit muhayyo. Hu-uv Sirg‘alingda <u>sakillab</u> *yurguncha!* (Erkin A’zam, “Zabarjad”) (Achchiqlanish).

Kechasi-yu kunduzi kalta ishton kiyib, <u>sakillab</u> *ko‘chada chopgani-chopgan* (hurmatsizlik, kamsitish).

Kechgacha <u>sakillagani</u> *bilan biror natijaga erisha olmadi* (So‘zlashuvdan). (Ishi bitmaganidan achinish ma’nosi).

Izg‘imoq so‘zi biror maqsadda kezib yurmoq ma’nosini ifodalaydi [12. B. 184]. Masalan:

Qorning och emasmi,
Omonmi joning?
Itlar <u>izg‘ib</u> *yurar.*
O, menga bu kech,
Aytgani shumidi Xudoning? (X.Rustamova).

“Izg‘imoq” leksemasi ham hayvon harakatidan inson harakatiga, uning yurish tarziga ko‘chirilgan. Nutqimizda “izg‘imoq” so‘zi insonga nisbatan qo‘llanganda “yurmoq” ma’nosini kuchaytiradi. Shuningdek, “aniq maqsad bilan yurmoq” ma’nosini anglatadi: *Tungi soat ikki: bu yigitlar nega ko‘chada* <u>izg‘iyapti</u>*? Buning ustiga ularning ikki nafari voyaga yetmagan* (Gazetadan).

Hayvon harakatini ifodalovchi semantik maydonning leksik-semantik guruhlari qatorini hosil qilayotgan *sakillamoq leksemasi izg‘imoq leksemasi bilan maqsadli-maqsadsiz harakatni ifodal*ash jihatidan o‘zaro zidlanadi.

Yugurtirmoq, quvmoq, qo‘lga tushirmoq so‘zlari Mahmud Koshg‘ariy tomonidan itga nisbatan sörgiläd shaklida qayd etilgan: *it käjikni sörgiläd – it kiyikni quvdi*. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk”da har narsani qo‘lga tushirish; hamla qilishga ham shu so‘z qo‘llanilishi ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, “Devonu lug‘otit turk” da ovchi itlarning o‘ljasiga hamla qilishi, yugurishini “*japïshdi”* so‘zi ifodal1,agan. Bu so‘z *japïshur, japïshmaq* variantlariga ega bo‘lib, har narsaga nisbatan qo‘llangan: It *käjikkä japïshdï – it ovga yopishdi* [13. B. 77].

Alisher Navoiy davriga kelib *sörgilädi* so‘zi iste’moldan chiqqan. Navoiy bunday ma’noni ifodalash maqsadida *“teztaklik qilmoq”* so‘zidan foydalangan, bu so‘z *“chopag‘onlik qilmoq”, “ildamlik qilmoq”* ma’nosida ishlatilgan [14. B. 221]. Misol: *Ikki tozi bobidakim, poyada bir-birisidin qolishmas erdi, oxir biri adam dashtig‘a teztak qildi va biri qoldi* [15]. Shuningdek, Navoiy *“qattiq chopmoq”* ma’nosini ifodalash uchun *“yugurdi”* so‘zidan foydalangan: *Yugurdi hiylagar devonalardek, Yiqilg‘on sham’ uza parvonalardek* [14. B. 77].

Yuqorida keltirilgan *yugurtirmoq, sörgilämoq, japïshmoq, yugurmoq* leksemalari ham hayvonga, ham insonga aloqador bo‘lgan, oyoq vositasida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni ifodalaydi. *Teztaklik qilmoq* leksemasi esa faqat hayvon harakatiga aloqadordir.

“Gijinglamoq” so‘zi otning bo‘ynini gaj qilib, o‘ynoqlab turishini ifodalaydi [16]. Tabiatda ot hayvonini kuzatadigan bo‘lsak, uning tinch turgan holatida ham bo‘yin qismini va old tomondagi ikki oyog‘ini tez-tez qimirlatib turishining guvohi bo‘lamiz. Tilimizda hayvondagi bunday holatni ifodalovchi maxsus “gijinglamoq” leksemasi mavjud. Masalan: *Shu bois har bir qorani diqqat bilan kuzatardi, ayniqsa, otliq chol or-*

tidan gijinglab, irg‘ishlab borayotgan qo‘ng‘irtob toychoq uning e’tiborini jalb etdi (N. Norqobilov).

Badiiy asarning ba’zan ta’sirini oshirish maqsadida harakatni bildiruvchi so‘zlar takror shaklda qo‘llanadi. Bunday o‘rinlar produtsiyentning tasvirlanayotgan vaziyatni to‘laqonli anglashini ta’minlaydi: *Uloq keldi. Tarlonni gijinglatib-gijinglatib bordim. Uloqni iskatib-iskatib oldim. Tarlon pishqirib-pishqirib qimtindi* (Tog‘ay Murod).

Keltirilgan misolda takroran qo‘llangan gijinglamoq leksemasi *“tantanavorlik”; “ko‘tarinkilik”* semalarini ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Endi esa gijinglamoq so‘zi hayvon harakatidan boshqa narsalarning harakatini ifodalagan misollarni ko‘rib chiqamiz.

Zamonning rivojlanishi natijasida insonlarning turmush tarzi ham shunga muvofiq rivojlanishi tabiiy. Bugungi kunda og‘ir yuk tashish, insonlarning uzog‘ini yaqin qilish kabi vazifalarni asosan mashinalar bajarmoqda. Qadimda ot-ulov harakatini ifodalashda qo‘llangan leksik birliklar bugungi avtotransport vositalarining harakatini ifodalash uchun ko‘chirilmoqda. Masalan: *Quvsa shamol etolmas mashinasini gijinglatib yurgan “okaxonlarimiz” haqida qisqacha so‘zlashishni lozim topdik* (Internetdan).

Yuqoridagi matnda qo‘llangan *“gijinglamoq”* so‘zi avtomashinalarning “yangi”, “tez yuradigan”, “yaxshi holatga ega” kabi semalarini ko‘chma ma’nolarda ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Otning oldingi oyoqlari bilan bog‘liq harakatini *“gijinglamoq”* leksemasi, orqa oyoqlarini havoda ko‘tarib yugurish holatini *“ang‘ishlamoq”* leksemasi ifodalaydi [16]. Masalan: *Ketdi bedov ot ang‘ishlab, Avazning vaqtini xushlab*. (“Intizor” dostoni). Bu leksema o‘zbek xalq dostonlarida ko‘p uchraydi: *Ang‘ishlaydi Zargarning mingan oti* (“Malika ayyor” dostoni); *Elib-elib, harchand qichab ko‘radi, Ang‘ishlab bu “Qultoy” ketib boradi*. (“Alpomish” dostoni).

“Folklor asarlari tilining izohli lug‘ati”da ang‘ishlamoq so‘zi “kishnamoq”, “gijinglab irg‘imoq” ma’nolarini ifodalashi qayd etilgan [16. B. 16].

Hozirgi o‘zbek tili iste’molida *“ang‘ishlamoq”* so‘zi mavjud emas, eskirgan so‘z hisoblanadi. Hozirda hayvonlardagi shunday harakat *“shataloq otmoq”* leksemasi bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida ot, mol va shu kabi hayvonlarning yugurishiga nisbatan “shataloq otmoq” so‘zi qo‘llanadi [12. B. 554]. Bu so‘z hayvonga nisbatan orqa oyoqlarini teng ko‘tarib tepinmoq; tepinib yugurmoq; o‘ynoqlab chopmoq ma’nolarini anglatadi [17]. Misol: *Ot pishqirib yubordi. Ikkinchi hamladan so‘ng shataloq otib qochdi* (N.Norqobilov).

Tabiatda ko‘proq ot, tuya, mol, qo‘y kabi hayvonlarning yangi tug‘ilgan bolasi orqa oyoqlarini baland ko‘tarib u yoq-bu yoqqa chopadi. Bunday harakat o‘zbek tilida *“shataloq otmoq”* so‘zi bilan ifodalanadi: *Rosa otdi shataloq. Olma daraxt tagida, Uxlab qoldi bo‘taloq* (M.A’zam).

So‘zlashuv uslubida yuqoridagi leksema insonga nisbatan ko‘chirilib, *“o‘ynamoq”, “raqsga tushmoq”, “ko‘nglini xushlamoq”* ma’nolarini ifodalaydi:

O‘mbaloq otib o‘ynoli,
Lo‘mbildoq otib o‘ynoli,
Osmona uchib, aylanib quchib,
Shataloq otib o‘ynoli (Xalq qo‘shig‘idan).

Shuningdek, insonga nisbatan qo‘llanganida, “bekor yurmoq”, “tashvish qilmaslik” kabi semalarni ifodalaydi: *Hammasi ko‘chada shataloq otadi* (O‘.Hoshimov). Bolalarga nisbatan qo‘llanib, “vaqtini o‘ynab o‘tkazmoq” semasini ifodalaydi: *Yoshing to‘qqizga chiqibdi-yu, ko‘chada shataloq otishdan beri kelmaysan!* (O‘.Hoshimov).

“Shataloq otmoq” so‘zining *“shatta otmoq”* shakli ham mavjud bo‘lib, keyingi ikki oyoq bilan tepmoq ma’nosini anglatadi [16]. Masalan: *Shu payt ot so‘nani ko‘rib, shatta otdi. Siddiqjon, xuddi ot olib qochadiganday, vahima bilan o‘zini egardan otdi* (A.Qahhor). *Shataloq otmoq, shatta otmoq, ang‘ishlamoq* so‘zlari birinchi navbatda hayvonga xos harakatni ifodalaydi. Konnotativ ma’noda boshqa narsalarning harakat-holatiga nisbatan ko‘chirilgandir.

O‘zbek tilida *“yelmoq”* so‘zi harakatga *kelmoq, esmoq* ma’nosini ifodalaydi. Bu so‘z Alisher Navoiy asarlari tilida ham *yugurmoq, chopmoq, tez yurmoq* ma’nolarida qo‘llangan. Masalan: *Firoq dashtidin itgan ko‘ngul yelib chiqa olmas. Aning bu vodi aro g‘ul rahnamunimu erkin?* [18. B. 523].

Shuningdek, Navoiy asarlarida *“yel”* leksemasi “uchqur ot” ma’nosini ifodalagan o‘rinlar mavjud: *Chu chiqti yelga gulbargi taridek, Falak raxshig‘a mehri xovaridek* [18. B. 523].

Alisher Navoiyda yo‘rg‘a ot, ya’ni bir xilda, chayqalmay yuradigan ot ma’nosini *takovar* so‘zi anglatadi. Ushbu so‘z *sur* so‘zi bilan birikib, otning chayqalmay, bir xilda yurishini ifodalaydi. Masalan:

Takovar surub za’fliq tan bila,
Nihon jismi sorig‘a shevam bila [14. B. 168].

O‘zbek tilida *dupurlamoq* so‘zi *“dupur-dupur”* taqlid so‘zidan yasalgan bo‘lib, shunday ovozni ifodalaydi [19. B. 52]. Masalan: *Tashqarida ot dupurladi*. (S.Siyoyev). Bu leksema shunday tovush chiqargan har qanday narsaga nisbatan qo‘llangan, keyinchalik tuyoqli hayvonlarning yurishidan chiqadigan tovushni ifodalash uchun ham olingandir.

O‘zbek tilida *yo‘rg‘alamoq* so‘zi ot, eshak kabi hayvonlarning bir xilda, chayqalmay yo‘rg‘a yurish qilishini ifodalaydi [16]. Misol: *To‘riq tanish yo‘ldan ildam yo‘rg‘alab ketdi*. (O‘.Umarbekov). Alisher Navoiy asarlari tilida ham bu leksema xuddi shunday shaklda qayd etilgan [19. B. 84]. Misol:__

Yo‘rg‘alamoq vaqti chu solib ayog‘,
Kabki dari ollida andoqki zog‘ (Alisher Navoiy).

Bu so‘z insonning yurishiga nisbatan ko‘chirilib, mayda qadam bilan u yoq-bu yoqqa gavdasini tashlab yurishini bildiradi. Bunda salbiy uslubiy bahoni ifodalaydi: *Mang‘itulining xotini ovqat olib kelibdi, – dedi-da, yelkasiga miltiq osgan zobit tugunni ko‘tarib to‘rdagi kabinet tomon yo‘rg‘aladi.* (“Yoshlik” jurnali); *Egamberdi to‘riqni jadal haydab, egardan sakrab tushib, tizgindan tutgancha chorbog‘ egasi tomon yo‘rg‘aladi.* (Sh.Xolmirzayev). Shuningdek, bu leksema ishtirok etgan lingvokulturologik birliklarda, xususan, maqollarda ham bunday salbiy uslubiy munosabat sezilib turadi: *Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar*. (O‘zbek xalq maqoli)

Yozma matnlarda tahlilga olingan so‘zni qo‘llash natijasida leksemaning leksik va uslubiy ma’nosidan tashqari “biror yumushni bajarish uchun majburan yurmoq”; “istamay harakat qilmoq” mazmuni ham ifodalanadi. Misol: *Dugonalar noiloj sumkalarini kiftlariga ilib, eshikka tomon yo‘rg‘alarkan, u yer-bu yerdan piq-piq kulgi eshitildi. Shaddod Shahlo bo‘sh kelmadi: bo‘sag‘aga etganida orqasiga o‘girildi, tilini chiqarib “va-a-a...”, deya ermaklagancha eshikni qarsillatib yopdi...* (U.Hamdam).

Qizlarning ketishni istamay harakat qilayotganligi ma’nosi matnda yo‘rg‘alarkan leksemasi yordamida reallashmoqda.

O‘zbek tilida yo‘rtmoq (yo‘rttirmoq) so‘zi leksik jihatdan hayvonning yurish harakatini ifodalaydi [12. B. 282]. Masalan: *Egamberdi ketganidan keyin qorabayirga egalik qilish istagi unga yana tinchlik bermadi, hafta o‘tkazib, xafaqon bir kayfiyatda tag‘in to‘rig‘ini yo‘rttirib, Inodning chorbog‘ida paydo bo‘ldi* (Sh.Xolmirzayev).

Tahlilga olingan leksema qadimgi turkiy tilda *jortushdï (variantlari: jortushur, jortushmaq)* shaklida uchraydi: *Ol mənің bïlä jortushdï. U men bilan ot yo‘rtish (yurgizish)da bahslashdi* [20. B. 111]. Shuningdek, *jo‘rtti, jo‘rtur, jo‘rtmaq, jortar variantlari* ham “Devonu lug‘otit turk”da qayd etilgan [20. B. 111].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *yo‘rtmoq* leksemasi tovush almashish hodisasiga uchragan. Biroq, bugungi kunda ham jonli tilda jo‘rtti shaklida “j”lovchi sheva hududlarida iste’molda mavjud.

Ayrim manbalarda qayd etilishicha, *yo‘rtmoq* so‘zi bolaga nisbatan qo‘llanib, pildirab erkin yurmoq ma’nosini bildiradi [21. B. 218]. Bu esa tahlilga olingan leksema insonning yurish harakatiga ham ko‘chishi mumkin, deya fikr bildirishimizga asos bo‘ladi.

D.B.O‘rinboyeva tomonidan tuzilgan lug‘atda *yo‘rtmoq* so‘zining izohi “*bolaning harakatiga nisbatan qo‘llanadi*”, deya ko‘rsatilgan. Bizningcha, bunday izohlash bilan leksemaning ma’nosi chegaralab qo‘yilgandek bo‘ladi. Negaki, yo‘rtmoq so‘zi o‘zbek tilida hayvon harakatiga nisbatan ishlatilgan o‘rinlar ham ko‘plab kuzatiladi. Misol: *Dashtning qoq belidan toylar uyuri yo‘rtib borayotir* (Erkin A’zam).

O‘zbek tilida *tirnoq* yoki *o‘tkir* narsa bilan tilmoq, yulmoq, timdalamoq ma’nosi *tirnamoq* leksemasi bilan ifodalanadi [16]. Bu so‘z ot hayvonining tuyoqlari vositasida yerni tirnashiga nisbatan qo‘llanib, hayvonning tabiiy harakatini ifodalaydi: *Tashqariladim, Tarlondan xabar oldim. Tarlon old oyoqlari bilan yer tirnadi* (Tog‘ay Murod). Bunday harakat qadimgi turkiy tilda köridi leksemasi bilan ifodalangan bo‘lib, “Devonu lug‘otit turk”da otning oldingi oyoqlari bilan yer o‘yishini ifodalagan: *At köridi – ot oldingi oyoqlari bilan erni o‘ydi* [14. B. 279]. Köridi leksemasi arxaiklashgan bo‘lib, bu so‘zning ma’nosi hozirgi o‘zbek tilida *tirnamoq* so‘zi bilan ifodalanadi.

Tepmoq so‘zi oyoq bilan zarb bermoq; tuyog‘ini yerga urib yer o‘ymoq ma’nosini ifodalaydi [16]. Misol: *Itni qopmas deb bo‘lmas, Otni tepmas deb bo‘lmas* (O‘zbek xalq maqoli).

Bu so‘z tuyoqli ish-ulov hayvonlariga nisbatan qo‘llanadi. Ba’zan so‘zlashuv uslubida parrandalarga nisbatan ham ishlatiladi. Misol: “*Xo‘roz esa, ochiqdan-ochiq tahdid qilmoqqa o‘tdi. O‘z qanoti bilan yer supurib, yaqinlashma, yomon qilaman, degan yo‘sinda joyida chir aylanarkan, ketiga tislanib, tepmoqqa chog‘landi*. (N.Norqobilov).

Tirnamoq, tepmoq, köridi so‘zlari dastlab hayvon harakatiga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, keyinchalik boshqa narsalarning harakatiga ko‘chirilgan.

O‘zbek tilida ot hayvonining bosh harakatini ifodalovchi *sarkashlik qilmoq* leksemasi ham mavjud. Bu so‘z tojik tilidagi “bosh” ma’nosini anglatadigan “sar” otiga “tortmoq” ma’nosini anglatuvchi “kashidan” fe’lining *-kash* hozirgi zamon asosini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, “bosh tortadigan”, “tixirlik qiladigan” ma’nosini bildiradi [22. B. 207]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sarkash so‘zi *“bosh tortuvchi”; “bo‘ysunmaydigan”; “mag‘rur”, “bo‘yin bermaydigan”, “itoatsiz”, “o‘jar”, “qaysar” ma’nolarini ifodalaydi* [16].

Sarkashlanmoq fe’li otga nisbatan qo‘llanib, yuqoridagi ma’nolarni ifodalaydi:

***Sarkashlandi** uchqur tuyog‘im,*
Qanotini qoqdi kuragim.

Dunyolarning kengliklarida,
Yayrab kishnadi ozod yuragim. (Z.Ochilova)

Konnotativ ma'noda inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni ifodalaydi:

Namozshomni bedor kutib tushlar uchdi.
Aqlim uchdi... ***Sarkashlanib*** *hushlar uchdi*. (M.Norchiyeva).

Qadimgi turkiy til leksikasida yuqoridagi *sarkashlanmoq* ma'nosini ifodalash uchun **möңdi** (variantlari: möңär, möңmäk) so'zi qo'llangan: *At möңdi – Ot sarkashlik qildi, tepdi* [14. B. 400]. Otning bo'ysunmay o'jarlik qilishini, o'zini u yoq-bu yoqqa tashlab, itoatsizlik qilishini anglatadi. Bu leksema qadimgi turkiy tilda faqat hayvonning sarkashlik qilishini ifodalagan bo'lib, insonga nisbatan qo'llanmagan. Insonlarga nisbatan *sunradï* so'zi qo'llangan [14. B. 410].

Qadimgi turkiy tilda otning boshini bermay, egar-jabdug'ini qadatmay sakrashi *qalïr* (varianti: qalïmaq) leksemasi bilan ifodalangan: *at qalïdï* [14. B. 287]. Har ikki *möңdi, qalïdï* so'zlari qadimgi turkiy tilda otning bo'yin tovlashi, sarkashlik qilishi ma'nolarini anglatgan. Bu esa "Devonu lug'otit turk"da qayd etilgan hayvon harakatini ifodalovchi o'zaro sinonim so'zlardir. Keyinchalik Navoiy davri tilida yuqoridagi so'zlar iste'molda uchramaydi.

Alisher Navoiy asarlari tilida *qiңg'aymaq* so'zi *sarkashlik qilmoq* ma'nosini ifodalaydi [19. B. 8]. Shuningdek, Navoiy o'z asarlarida "bosh tortmoq" ma'nosini ifodalash uchun *sarkashlik qilmoq* so'zidan ham foydalangan: *Ul zamonda Faylaqus erdi, sarkashlik qildi ersa, sipoh tortib Rumg'a yurub, qaysarni tutti va band qildi* ("Tarixi muluki ajam").

O'zbek tili leksik zaxirasini o'rganadigan bo'lsak, hayvonlar harakatini ifodalovchi so'zlar ichida faqat muayyan hayvonning harakatiga nisbatan qo'llanib, boshqa hayvonlarga nisbatan ishlatilmaydigan so'zlar borligining guvohi bo'lamiz. Shulardan ayrimlari tuya hayvoniga aloqadordir. Tuya asosan ish-ulov hayvoni bo'lib, yuk ortish, ustiga minishda dastlab uni qulay holatga keltirib olish kerak bo'ladi. Bunday hollarda gavda harakatini ifodalovchi *cho'kdi, cho'kkaladi* so'zlari qo'llanadi. Bu leksemalarning kelib chiqishi turkiy xalqlarning uzoq tarixiy davriga borib taqaladi. "Devonu lug'otit turk"da *ol anïң tewäsin chöktürdi – u uning tuyasini cho'ktirdi* shaklidagi misol uchraydi [23. B. 211]. Shuningdek, bu so'z qadimgi turkiy tilda oltin-kumushni suvda ayirib olish harakatiga nisbatan ham qo'llanganligi Mahmud Koshg'ariy tomonidan qayd etilgan [23. B. 211].

"O'zbek tilining etimologik lug'ati"da bu so'zning izohi berilmagan. Lekin tuya boquvchi chorvadorlar tilida hozir ham iste'molda mavjud bo'lib, hayvonning tizzasini yarim bukkan holatda gavdasini egish holatini ifodalaydi. Bu leksemaning hosil bo'lishiga oid ikki xil fikr bildirish mumkin. Birinchisi, biron narsaning quyiga tomon harakatini anglatuvchi *"cho'kmoq"* so'zidan hosil qilingan; ikkinchisi esa aynan yirik ish-ulov hayvonlariga nisbatan qo'llanuvchi *"cho'k-cho'k"* haydash-chaqirish undov so'zidan fe'l yasovchi affiks vositasida hosil qilingan. Bizningcha, ikkinchi fikrimiz reallikka ancha yaqin. Chunki *cho'kdi, cho'kkaladi* so'zlarining leksik ma'nosi shu harakatni amalga oshirishga undash maqsadida qo'llanuvchi "cho'k-cho'k" haydash-chaqirish undov so'zidir. Bu so'zning XVII–XVIII asr adabiy manbalarida *cho'kurdi* shaklidagi varianti ham uchraydi: *Og'ir yuki yo'lda o'shal sarbon, cho'lda cho'kurdi tuzatay deb ravon* (Gulxaniy).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *cho'kdi* leksemasining *cho'kkaladi* dialektal shakli ham mavjud. Ba'zan so'zlashuvda insonning o'tirish harakatiga nisbatan *cho'kdi, cho'kkaladi* so'zlaridan foydalaniladi. Bunday hollarda produsient va resipient o'rtasidagi uslubiy baho, yosh bo'yicha baho, yaqinlik, do'stlik kabi milliy-madaniy xususiyatlar aks etadi. Masalan, *U (suhbatdoshini suhbatga chorlash maqsadida) biroz shu yerga cho'king dedi*. (So'zlashuvdan)

Tahlilga olingan *cho'kmoq* leksemasi yuqorida ko'rib o'tganimizdek, dastlab hayvon harakatiga nisbatan qo'llangan bo'lib, keyinchalik ma'nosi kengayib, boshqa narsalarga nisbatan ko'chirilgan.

Tepdi leksemasi oyoq bilan zarb bermoq ma'nosini bildirib, qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan. Dastlab "tip" shaklida qo'llangan bo'lib, so'zdagi "i" unlisi keyinchalik "e" unlisiga almashgan [22. B. 330].

Tuya oyog'ini yerga tez-tez urib turadi. Bu holat asosan tinch turgan paytida shartli refleks singari amalga oshadi. Qadimgi turkiy tilda tuyadan boshqa hayvonga nisbatan qo'llanmaydigan *taprïdï* (variantlari: taprïr, taprïmaq) leksemasi mavjud bo'lgan [14. B. 292]. Bu so'z "*sakradi"* degan ma'noni bildiradi. Masalan: *Tewa taprïdï – tuya sakradi*. Bugungi kunda o'zbek tili leksik zaxirasida tahlilga olingan so'z mavjud emas.

Ot bilan bog'liq asosiy harakatlarni ifodalovchi leksemalar ichida uning oyoq harakatlari, ya'ni *yo'rtishi, chopish*ni ifodalovchi leksemalar mavjud. O'zbek tili tarixida chavandozning ehtiyotsizligi natijasida yo'rtib borayotgan hayvon oyog'ining toyishi, qoqilishini ifodalovchi leksema ham mavjud bo'lgan. Qadimgi turkiy tilda *surchïttï* (variantlari: surchïtur, surchïtmaq) leksemasi oyoq harakati bilan bog'liq "toyilmoq", "qoqilmoq" ma'nosini anglatadi. Mah-

mud Koshg‘ariy tomonidan otga ham, otdan boshqa hayvonlarga ham shu so‘z qo‘llandi, deb izoh berilgan: *Ol atïn surchïttï – U otini toydirdi, qoqiltirdi* [23. B. 379].

Hozirgi o‘zbek tilida bunday ma’no *qoqilmoq, toyilmoq* so‘zlari bilan ifodalanib, ular dastlab hayvonning oyog‘i bilan bog‘liq harakatni ifodalagan. Keyinchalik esa boshqa narsalarga nisbatan ham ishlatila boshlangan.

Tisarilmoq so‘zi xavf-xatardan chekinib, orqaga yurmoq ma’nosini ifodalaydi [16]. Masalan: *Tarlon to‘daga kirmadi! Keyiniga tisarildi* (Tog‘ay Murod).

Insonlarda yurish bilan bog‘liq harakat oldinga tomon bo‘ladi. Hayvonlar harakatida o‘zaro urishish, xavf-xatardan chekinish maqsadida orqaga yurish ham uchrab turadi. Bunday harakatni ifodalovchi fe’llar o‘zbek tilida juda kam bo‘lib *tislanmoq, tisarmoq* kabi leksemalarni misol qila olamiz. Har ikki leksema “tis” undov so‘zidan hosil qilingan. Izohli lug‘atda orqasi bilan *yurgizib, ketiga qaytarmoq* ma’nosini ifodalashi ko‘rsatib o‘tilgan [16]. Keyinchalik nutqimizda hayvon harakatidan mashinani *tisarmoq, chekinmoq, qochmoq* kabi boshqa narsalarning harakatiga ko‘chirilgandir.

Navoiy asarlari tilida ulovli hayvonlarni tez *yuradigan chopag‘on, ildam qilish; tezlatmoq, yugurtirmoq* kabi ma’nolarni ifodalash uchun *teztak qil* so‘zi qo‘llangan:

Chiqdi markabni qilurg‘a teztak,
Yo‘q edi, vayrona toshinda eshak [15. B. 221].

Bu leksema hozirgi o‘zbek tili lug‘atida iste’moldan chiqqan bo‘lib, o‘rniga *chopag‘on qilmoq, tezlatmoq, ot qo‘ymoq, ot choptirmoq, yugurtirmoq* kabi so‘zlar qo‘llanadi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida *jarïsh* so‘zi poyga, ot poygasi ma’nosini anglatgan bo‘lib, shu asosdan jarïndï leksemasi yasalgandir. Bu so‘z otning chopishini ifodalagan: *at jarïndï – ot poyga maydonida o‘rganguncha chopishga o‘rgatildi* [14. B. 91]. Jarishdï varianti ham mavjud bo‘lib, u ham “ot bilan poyga qildi” degan ma’noni bildiradi. Bu so‘z qoraqalpoq tilida hozir ham iste’molda mavjud [14. B. 79].

Mahmud Koshg‘ariy *quwdï*, *jo‘ggardi* [23. B. 199, 341] so‘zlarining “haydaldi”, “choptirdi”, “chopdi” kabi ma’nolarni ifodalashini ham qayd etgan bo‘lib, bu leksemalar hozirgi o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan *quvmoq, yugurmoq* ma’nolarini ifodalaydi. Davrlar o‘tishi bilan *jarïndï, quvdï, jo‘ggardi* so‘zlarining leksik ifodalanishida qisman fonetik o‘zgarish yuz bergan, ammo bugungi kunda lug‘aviy ma’nosini saqlab qolgan va hozirgi o‘zbek tili iste’molida mavjud.

Hozirgi o‘zbek tili shevalarida *chopmoq* so‘zi *chovmoq* shaklida uchraydi:

Qadalib turibdi ko‘ngliga tikan.
Ko‘pkari borgandik
Tomosha uchun,
U bir qo‘l chovaman deb o‘ylab ekan
(Shaxriyor Shavkat).

Sakramoq so‘zi oyoq yordamida harakatlanishni ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda *sakramoq* ma’nosini ifodalovchi *suchïdï / suchïmaq* leksemalari qo‘llangan [14. B. 274]. Yuqoridagi leksemalar otning harakatini ifodalagan.

“Devonu lug‘otit turk” XI asr turkiy xalqlarning leksik zaxirasi, so‘zlarning qo‘llanish doirasiga ko‘ra xoslanishi haqida muhim ma’lumot beradi. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy tomonidan *taprïr, taprïmaq* leksemalari tәwәj taprïdï – tuya sakradi, hatladi ma’nosini ifodalab, tuyadan boshqaning harakatiga nisbatan qo‘llanmasligini yuqorida ko‘rib o‘tdik [14. B. 292]. Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk”da *buqrïdï – at suchïdï buqrïdï* juft so‘zi ham keltirilgan bo‘lib, otning boshini bermay sakrash harakatini ifodalagan. *Buqramaq, buqrar* kabi variantlari ham “Devonu lug‘otit turk”da keltirilgan bo‘lib, ular ham sakramoq ma’nosini ifodalaydi [14. B. 294].

Tahlilga olingan so‘z Alisher Navoiy asarlari tilida ikki xil ko‘rinishga ega: 1) *sekri / sekra sakramoq; irg‘ishlamoq*; 2) *sekrit choptirmoq, tez yurgizmoq ma’nosini ifodalaydi* [15. B. 69]. Misol:

Xo‘blar xayli aro har sori tushmush rustaxez,
Go‘yiyo maydon ichiga chabukkim sekretti ot
(“Xazoyin ul-maoniy”).

Ikki shakl ham hayvonning oyog‘ini erdan uzib, tez harakat qilishini ifodalaydi. Bu so‘z Bobur asarlari tilida ham mavjud:

O‘tumni tez etasen har tarafg‘a sekretib ot,
Samandi noz inoni bir beri yondur (Z.M.Bobur).

O‘zbek tilida hayvonlarning harakat-holatiga nisbatan qo‘llanuvchi *o‘ynoqlamoq* so‘zi mavjud bo‘lib, u tinch turmay turli harakatlar *qilavermoq, o‘ynab ketmoq, irg‘ishlamoq* ma’nosini ifodalaydi [16]. Masalan: *Tarlonni qirq kun sovutdim. Tarlon bir erda turolmay qoldi, tuyoqlari erga tegar-tegmay yurdi. O‘ynoqlab-o‘ynoqlab osmonga sapchidi. Quyundayin uchgisi keldi.* (Tog‘ay Murod). Bu so‘z ba’zan uslubiy maqsadda hayvon harakatidan boshqa narsalarning harakatiga ko‘chiriladi. Konnotativ ma’noda qo‘llanganda ijobiy subyektiv bahoni aks ettiradi.

Quyidagidek o‘rinlarda “yaxshi harakat qilmoq” semasini ifodalaydi: *“Bunyodkor” ilk o‘yinida o‘ynoqlab bergan bo‘lsa-da, keyin nafasi ichiga tushib, harsillaganicha arab va fors jamoalariga talash bo‘ldi.* [17]; “sho‘x harakat qilmoq”, “o‘ynamoq” ma’nolarini ifodalaydi: *Osmondan o‘ynoqlab tushayotgan qor parchalarini kuzatganmisiz. Biroz osmonga qarab tursangiz yuz-ko‘zlaringizga ohista qo‘nayotgan qor parlari barcha g‘uboringizni yuvib, o‘rnini muhabbatga to‘ldirayotgandek.* (Gazetadan).

O‘zbek chorvadorlari tilida faqat otga nisbatan qo‘llanuvchi *sovutmoq* so‘zi ham mavjud bo‘lib, u ko‘chma ma’noda qo‘llanganda uloqchi otlarni uloqqa tayyorlash jarayonini, maxsus usul, qat’iy tartib asosida inson tomonidan amalga oshiriladigan harakatni ifodalaydi. Bu harakat inson tomonidan amalga oshirilsa-da, sovimoq hayvonga xos holatni bildiradi. Qiyoslang: 1. *Mingboshi qo‘lidagi choyni hech bir luzumsiz aylantirib sovitmoq bilan ovora edi.* (Cho‘lpon) 2. *Tarlonni qirq kun sovitdim* (Tog‘ay Murod). Bu leksema dastlab boshqa narsalarga nisbatan qo‘llanib, konnotativ ma’noda hayvonga nisbatan ishlatiladi. Otning “badanini salqinlatmoq”; otni “dam oldirmoq”; “chopishdan to‘xtatmoq” kabi ma’nolarni anglatadi.

Hayvon gavdasini u yoq-bu yoqqa chayqatib, qalqib yurishi o‘zbek tili shevalarida *irg‘almoq* leksemasi bilan ifodalanadi. Bu so‘z o‘zbek xalq shevalarida u yoq-bu yoqqa chayqalmoq, qalqimoq, silkinmoq ma’nolarini ifodalash uchun qo‘llanadi [16]. Irg‘almoq leksemasining adabiy tilga yaqin ma’nosi silkinmoqdir. Misol: *Qarasa, o‘sha o‘zini aldagan parizod to‘qmoq yolli to‘riq otni minib, munkib, qalqib, mingan oti bir-bir bosib, irg‘alib borayotgan ekan* (“Murodxon” dostoni).

Xulosa

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, hayvonlarning yurish harakatini ifodalovchi lingvistik vositalar uslubiy jihatdan farqlanadi. Shuningdek, har bir hayvonning xatti-harakatidagi biologik o‘ziga xoslik uni ifodalovchi leksemaning semantik xususiyatida aks etmay qolmaydi. Biz buni yuqorida keltirilgan *sakramoq, chopmoq, yo‘rtmoq, yo‘rg‘alamoq, irg‘almoq* so‘zlari misolida ko‘rib o‘tdik.

Sakillamoq, tislanmoq, tisarilmoq, cho‘kmoq, o‘ynoqlamoq leksemalari dastlab hayvon harakatiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, keyinchalik konnotativ ma’noda boshqa narsalarga nisbatan ko‘chirilgan.

Hayvonlarning yurish harakati bilan bog‘liq *sörgilädi, sörgilämak; suchïdï, taprïr, taprïmaq; qalïr, qalïmaq; möңdi, möңär, möңmäk* leksemalari esa ijtimoiy munosabatlar ta’sirida o‘zbek tili leksik zaxirasidagi tarixiy leksemalar fondidan joy olgan.

Adabiyotlar:

1. *Юлдашева Д.* Ўзбек болалар фольклори тилида зоонимлар: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2007. – 124 б.

2. *Тошева Д*. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. доктори (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2017. – 60 б.

3. *Қўчқортоев И*. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1997. – 168 б.

4. *Содиқова М*. Феъл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – 104 б.

5. *Маҳмудов Н*. Ўзбек тилида содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Фан, 1984. – 105 б.

6. *Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д.* Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 144 б.

7. *Расулов Р*. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 143 б.

8. *Собиров А.* Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 82 б.

9. *Саидхонов М*. Ишораларнинг вербаллашуви ва матний хусусиятлари. (Монография). Тошкент: Tamaddun, 2022. – 232 б.

10. Раҳимова Д. Юриш ҳаракат феълларининг валентлик таркиби // “Science and education” Scientific journal, 2023. – Vol. 4. Issue I. – Pp. 1196–1200.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик 3-жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 688 б.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик 2-жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – 671 b.

13. Кошғарий М. Девони луғотит турк. III томлик. 3-том. / Нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1963. – 464 б.

14. Фозилов Э. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1985. – 624 б.

15. *Навоий А.* Фавоид ул-кибар / Мукаммал асарлар тўплами. III-қисм. /Нашрга тайёрловчи Н.Сулаймон. – Тошкент: Фан, 1990. – 568 б.

16. *Ўринбоева Д.Б.* Фольклор асарлари тилининг изоҳли луғати. – Самарқанд: СамДУ, 2017. – 257 б.

17. Улар тўртта эди – биттаси қолди. [Интернет манба]. URL: https://kun.uz/kr/news/2016/05/24/ular-turtta-edi-bittasi-koldi (Мурожаат этилган сана: 08.06.2024)

18. *Раҳматуллаев Ш*. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III томлик. 2-том. – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.

19. *Фозилов Э*. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1985. – 642 б.

20. *Эгамова Ш*. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 119 б.

21. *Ҳожиев А., Нурмонов А., Зайнобиддинов З., Кокрен К., Саидхонов М., Собиров А., Қуронов Д.* Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 336 б.

22. *Кошғарий М*. Девони луғотит турк. III томлик. 1-том. / Нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1960. – 500 б.

23. *Кошғарий М*. Девони луғотит турк. III томлик. 2-том. / Нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1961. – 428 б.

24. Фозилов Э. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.

A LINGUACULTURAL STUDY OF LEXEMES REPRESENTING ANIMAL MOVEMENT

D.R. Turgunova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 126-135.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: walking movement, lexical-cemantic field, lexical-cemantic group, leg movement, hoof movement, connotative meaning.

The article ic about lexemec reprecenting the walking behavior of zoonymc that exict in the uce of the Uzбek language, and it providec information that in recent yearc, zoonym lelcamac and linguictic unitc containing zoonymc have бeen actively ctudied, бut in cuch recearch, lekic unitc reprecenting zoonym behavior are left out of concideration. Lexemec reprecenting the movement of animalc are divided into lecki-cemantic groupc, and their hictorical formc and linguictic-cultural featurec are analyzed.

Today, zoonymc are ctudied by many linguictc ac a major recearch cubject. Lexical-cemantic acpectc of zoonymc, their conceptual featurec are being determined. However, we can cay that all the recearchec that have been carried out are about zoonymc, and in them the wordc that exprecc the behavior of animalc have eccaped the attention of linguictc. After all, not only zoonymc, but alco wordc expreccing their behavior are important in the linguictic landccape of the world. Every language hac zoonymc that have long been accociated with itc flora and fauna. Therefore, it ic natural for language ownerc to feel the need to exprecc their behavior. In the Uzbek language, lexemec reprecenting the

behavior of animalc make up a large part of the vocabulary ctock of the language and have an important place.

The verbc reprecenting the movement of walking belonging to the cubctantive group of verbc of action and ctate are human walking movementc baced on the ccope of our topic; can be divided into meaningful groupc, cuch ac verbc that exprecc the movement of an animal. In thic ctudy, we will focuc only on the lexemec that reprecent the actionc accociated with the movement of animalc.

If we study the lexical reserve of the Uzbek language, we can see that among the words expressing the movement of animals, there are words that are used only in relation to the movement of a certain animal, and are not used in relation to other animals. Some of these are related to the camel. Since the camel is mainly a working animal, it is necessary to make it comfortable before loading and riding. In such cases, the words are used to express the movement of the body. The origin of these lexemes goes back to the long historical period of the Turkic peoples.

Among the lexemes that represent the main actions related to the horse, there are lexemes that represent its leg movements, that is, walking, running. Look at the fact that in the history of our language, there is also a lexeme that represents the tripping of an animal's leg, which is running as a result of the carelessness of the rider.

As can be seen from the above, the linguistic means of considering animal behavior are methodologically different. Also, the biological identity in the behavior of each individual cannot fail to reflect the semantics of the lexeme that complements.

References:

1. Yuldasheva, D. (2007). O‘zbek bolalar folklori tilida zoonimlar [Uzbek children's folklore language]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences Tashkent.

2. Tosheva, D. (2017). Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari [Linguocultural features of proverbs with zoonymic components]. Abstract of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Tashkent.

3. Kochkortoev, I. (1997). *So‘z ma'nosi va uning valentligi* [Word meaning and its valency]. Tashkent: Fan.

4. Sodikova, M. (1975). *Fe'l stilistikasi* [Stylistics of verbs]. Tashkent: Fan.

5. Mahmudov, N. (1984). *O‘zbek tilida sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya* [Semantic-syntactic asymmetry in simple sentences in the Uzbek language]. Tashkent: Fan.

6. Nurmonov, A., Shahobiddinova, Sh., Iskandarova, Sh., & Nabiyeva, D. (2001). *O‘zbek tilining nazariy grammatikasi: Morfologiya*. [Theoretical grammar of the Uzbek language: Morphology]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

7. Rasulov, R. (1989). *O‘zbek tilida holat fe'llari va ularning obligator valentliklari* [Stative verbs and their obligatory valency in Uzbek language]. Tashkent: Fan.

8. Sobirov, A. (2004). *O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish* [Studying the lexical level of the Uzbek language on the principle of systems of systems]. Tashkent: Ma'naviyat.

9. Saidkhonov, M. (2022). *Ishoralarning verballashuvi va matniy xususiyatlari* [Verbalization of deictic expressions and their textual features] Tashkent: Tamaddun.

10. Rahimova, D. (2023). Yurish harakat fe'llarining valentlik tarkibi [Valency structure of motion verbs]. "Science and education" Scientific journal, 2023. Vol. 4. Issue 1. Pp. 1196-1200.

11. Madvaliev, A. (ed.) (2007) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language]. In 5 volumes. Vol. 3. Tashkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

12. Madvaliev, A. (ed.) (2007) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language]. In 5 volumes. Vol. 2. Tashkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

13. Koshgariy, M. (1963). *Devoni lug‘otit turk* [Devoni Lugatit Turk]. In 3 volumes. Vol. 3. Tashkent: Fan.

14. Fazilov, E. (1985). *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati.* [Explanatory dictionary of Alisher Navoi's works]. In 4 volumes.Vol. 3. Tashkent: Fan.

15. Navoi, A. (1990). *Favoid ul-kibar* [Favoyid ul-Kibar / In: Mukammal asarlar to‘plami [Collected works]. Part III. Tashkent: Fan.

16. Orinboyeva, D.B. (2017). *Folklor asarlari tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the language of folklore works]. Samarkand: SamDU.

17. Ular to‘rtta edi – bittasi qoldi [There were four of them - one left]. [Online]. URL: https://kun.uz/kr/news/2016/05/24/ular-turtta-edi-bittasi-koldi (Date of Access: 08.06.2024)

18. Rahmatullaev, Sh. (2003). *O‘zbek tilining etimologik lug‘ati* [Etymological dictionary of the Uzbek language]. In 3 volumes. Vol. 2. Tashkent: University.

19. Fazilov, E. (1985). *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of Alisher Navoi’s works]. In 4 volumes.Vol. 2. Tashkent: Fan.

20. Egamova, Sh. (2008). *Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi* [Study of ancient Turkic vocabulary in Alisher Navoi’s works]. Tashkent: Fan.

21. Hojiyev, A., Nurmonov, A., Zaynobiddinov, Z., Kokren, K., Saidxonov, M., Sobirov, A., Quronov, D. (2001). *Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of active words in modern Uzbek language]. Tashkent: Sharq.

22. Koshgariy, M. (1963). *Devoni lug‘otit turk* [Devoni Lugatit Turk]. In 3 volumes. Vol. 1. Tashkent: Fan.

23. Koshgariy, M. (1963). *Devoni lug‘otit turk* [Devoni Lugatit Turk]. In 3 volumes. Vol. 2. Tashkent: Fan.

24. Fazilov, E. (1983). *Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of Alisher Navoi’s works]. In 4 volumes.Vol. 1. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma’lumot:

TURG‘UNOVA Dildora Rahmatjonovna – Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi erkin tadqiqotchisi. Email: dt12194024@gmail.com